
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARGA IJTIMOY YORDAM KO'RSATILMOQDA

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish choralari ko'rilmogda. Davlatimiz tomonidan xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga olgan holda ularning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmogda. Toshloq tumanida tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limi tomonidan jami 154 nafar yolg'iz yashaydigan keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga turli xil turdagi yordamlar ko'rsatib kelinmogda. Keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarni 186 nafari reabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlandi.

Toshloq tumanidagi Guzarboshi MFY, Ulug'bek ko'chasida yashovchi birinchi guruh nogironligi bo'lgan Ixvolbek O'rinov tibbiy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limiga elektr yuritmalni nogironlik aravacha olish uchun murojaat qilgan edi.

Ushbu fuqaroning murojaati o'z vaqtida xal etildi. Kuni-kecha viloyat tibbiy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarma boshlig'i X.Mirzayev hamda tuman hokimligi murojaatchining xonadoniga tashrif buyurib, elektr yuritmalni aravachani topshirdilar

2022-09-27 16:31:40